

“Ro‘yxatdan o‘tkazildi”

Toshkent shahar Mirobod
tumani davlat xizmatlari markazi

2025 yil “ ”

“TASDIQLAYMAN”

Toshkent farmatsevtika instituti
rektori K.S. Rizayev



TOSHKENT FARMATSEVTIKA INSTITUTI AKADEMIK LITSEYINING USTAVI

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Ustav Toshkent farmatsevtika instituti akademik litseyi (keyingi o'rinlarda – akademik litsey deb yuritiladi)ning maqomi, asosiy maqsad va vazifalari, huquq va majburiyatlari, shuningdek, faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

2. Akademik litsey Milliy malakalar ramkasining 3-darajasiga mos keluvchi o'rta maxsus ta'lim dasturlari bo'yicha kadrlar tayyorlashga ixtisoslashgan ta'lim tashkiloti hisoblanib, davlat ta'lim standartlariga mos ravishda o'rta maxsus ma'lumot beruvchi, o'quvchilarning qiziqishi va iqtidoridan kelib chiqib, chuqurlashtirilgan ta'lim yo'nalishlari bo'yicha o'qitish, oliy ta'limga maqsadli yo'naltirish, jadal intellektual rivojlanish bilan ta'minlovchi, shuningdek, maxsus chuqurlashtirilgan tayyorgarlikni talab etmaydigan alohida mutaxassislik beruvchi, O'zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlariga muvofiq, o'quv-pedagogik, ilmiy-metodik va boshqa faoliyatni amalga oshiruvchi davlat ta'lim tashkiloti hisoblanadi.

3. Akademik litseyda ta'lim, to'qqiz yillik tayanch o'rta ta'lim asosida ikki yil mobaynida amalga oshiriladi va ta'lim oluvchilarning intellektual qobiliyatlarining jadal rivojlanishini, shuningdek chuqur, tabaqalashtirilgan va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim olishini ta'minlaydi.

4. Akademik litsey o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi va boshqa qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, qarorlari, farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda idoraviy bo'ysunuvi bo'yicha tegishli vazirlik va idoralarning buyruqlari, Toshkent farmatsevtika instituti Kengashi qarorlari va rektor buyruqlari, ta'lim tizimiga oid boshqa qonunchilik hujjatlari, meyoriy-huquqiy hujjatlar hamda Akademik litsey ustavi asosida amalga oshiradi.

5. Akademik litseyga o'quv-metodik jihatdan rahbarlik qilish hamda bu sohada davlat siyosatini yuritish Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan amalga oshiriladi.

6. Akademik litseyni moliyalashtirish O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa mablag'lar hisobidan amalga oshiriladi.

7. Akademik litsey berilgan moddiy-texnik bazani saqlash, mustahkamlash va rivojlantirish tadbirlarini amalga oshiradi, shuningdek, ajratilgan mablag'lardan ratsional va samarali foydalanishni nazorat qiladi.

8. Akademik litseyga umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarining o'quvchilarini qabul qilish, boshqa ta'lim tashkilotiga ko'chirish, o'qishdan chetlatish, shuningdek, akademik ta'lim berishni rasmiylashtirish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan Nizomga muvofiq amalga oshiriladi.

9. Amaldagi qonunchilikka muvofiq, qabul qilingan chet el fuqarolari akademik litsey o'quvchisi bo'lishi mumkin.

10. Akademik litsey yuridik shaxs hisoblanadi. Operativ boshqaruvida o'ziga xos maxsus mol-mulkka ega va ushbu mol-mulk bo'yicha o'z majburiyatlariga

muvofig javob beradi, o'z nomidan mol-mulk sotib olishi va mulkiy hamda nomulkiy huquqlarni amalga oshirishi, zimmasiga majburiyat olishi, sudda da'vogar va javobgar bo'lishi mumkin.

Mustaqil balansga, bank tashkilotlarida hisob-kitob va boshqa shu jumladan shaxsiy hisob raqamlariga, O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri tushirilgan va o'z nomi yozilgan shtamplar va boshqa rekvizitlarga ega.

11. Akademik litseyning rasmiy nomlanishi:

a) davlat tilida:

to'liq nomi: "Toshkent farmatsevtika instituti akademik litseyi",

qisqartirilgan nomi — "TFI akademik litseyi";

b) ingliz tilida:

to'liq nomi: "Academic lyceum of Tashkent Pharmaceutical Institute",

qisqartirilgan nomi — "TPhI academic lyceum";

d) rus tilida:

to'liq nomi: "Академический лицей Ташкентского фармацевтического института",

qisqartirilgan nomi — "Академический лицей ТФИ".

12. Akademik litseyning joylashgan manzili (pochta manzili):, Toshkent shahar, Mirobod tumani, Oybek ko'chasi, 45-uy; indeks: 100015.

2-bob. Akademik litsey faoliyatining asosiy maqsad va vazifalari

13. Akademik litseyning asosiy maqsadlari:

o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishiga, ularning bilim darajasini oshirishga, shaxsning intellektual, madaniy va ma'naviy-axloqiy kamol topishiga bo'lgan ehtiyojlarini o'rta maxsus ta'lim jarayonida ma'lumot berish orqali qondirish;

o'quv jarayoni sifati va samaradorligini oshirish, moddiy-texnika bazasi, ta'lim va axborot resurslaridan foydalanish;

iqtidorli o'quvchilarni qo'llab-quvvatlash, ularni maqsadli oliy ta'limga yo'naltirish va pirovard natijada akademik litsey bitiruvchilarining oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga kirish ko'rsatkichlarini oshirish;

akademik litsey faoliyatini muntazam takomillashtirib borish.

14. Akademik litseyning asosiy vazifalari:

umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarining eng iste'dodli, eng iqtidorli o'quvchilarini saralab oladi va o'quvchilarning intellektual qobiliyatlarini yanada rivojlantirishga hamda o'qishini oliy ta'lim tashkilotlarida davom ettirishga tayyorlaydi;

davlat ta'lim standarti talablari bajarilishini ta'minlaydi;

oliy ta'lim tashkilotlarida o'qishni davom ettirish imkoniyatini ta'minlaydigan ta'lim dasturlarini ishlab chiqadi va bajarilishini ta'minlaydi;

o'quvchilarning tanlagan ta'lim yo'nalishlari bo'yicha chuqurlashtirilgan bilim olishlari uchun keng imkoniyatlar yaratib beradi;

o'quvchilarning ijodiy salohiyati, qobiliyati, individual iste'dodlarining namoyon bo'lishi va faollashishiga ko'maklashuvchi, har bir o'quvchining mustaqil faoliyat ko'nikmalarini shakllantiruvchi hamda rivojlantiruvchi ta'lim muhitini

yaratadi;

ilg'or mahalliy va xorijiy ta'lim tashkilotlarining tajribasini hisobga olgan holda ta'lim jarayonining zamonaviy tashkiliy shakllarini joriy etadi;

ta'lim jarayonida ilg'or pedagogik va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini, mustaqil ta'lim olish vositalarini hamda masofaviy ta'lim berishni qo'llash (zaruriy hollarda qonunchilik asosida) hisobiga o'quv-tarbiya sifatini oshirishga yo'naltirilgan ilmiy-uslubiy ishlarni amalga oshiradi;

akademik litseydagi o'quv jarayonining sifatini davriy ravishda oshirib boradi;

3-bob. Akademik litseyning huquq va majburiyatlari

15. Akademik litsey quyidagi huquqlarga ega:

O'zbekiston Respublikasi hududida o'z nomidan yuridik va jismoniy shaxslar bilan vakolati doirasida shartnomalar va normativ-hujjatlar tuzadi, jumladan mahalliy va xorijiy ish beruvchilar bilan to'lov-kontrakt asosida kadrlar tayyorlash va qisqa muddatli o'quv kurslarini tashkil etish bo'yicha to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar tuzadi;

akademik litsey o'qituvchilarining kasbiy salohiyati va pedagogik mahoratini oshirib borishi hamda ularning ilmiy tadqiqot va ijodiy faoliyatlari uchun sharoitlar yaratadi va malaka toifalarini oshirib boradi;

ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqadi va ularni ta'lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etadi;

ta'lim-tarbiyaviy faoliyat monitoringi natijalarini Toshkent farmatsevtika institutining Ilmiy kengashi muhokamasiga kiritadi;

akademik litseyning iqtidorli o'quvchilarini olimpiadalar, ko'rik-tanlovlar orqali aniqlab, rag'batlantirib boradi, respublika va xalqaro fan olimpiadalariga tayyorlaydi;

akademik litsey bitiruvchilarining oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga kirish ko'rsatkichlarini har o'quv yili boshida tahlil qiladi va tegishli chora-tadbirlarni belgilaydi;

o'quv tarbiyaviy jarayonda sog'lom muhitni amalga oshirish uchun sharoitlar yaratadi, sog'lom turmush tarzi meyorlarini amalda tatbiq etadi;

o'quvchilarda vatanparvarlik, milliy o'zlikni anglash, xalqning milliy, madaniy, tarixiy an'analarga hurmat, Vatan bilan g'ururlanish va iftixor tuyg'usini shakllantiradi;

yosh avlodni har tomonlama yetuk va barkamol shaxs, mustaqil davlat fuqarosi, o'z Vatanining fidoyisi, jamiyat, davlat va oila oldidagi o'z mas'uliyatini his qiladigan insoniy qadriyatlar hamda milliy an'analarni hurmat qiladigan, Vatanimiz kelajagi uchun halol mehnat qiladigan va vijdonan pok ruhda tarbiyalaydi;

doimiy ravishda o'qituvchilarning ta'lim berish sifati darajasini oshirib borishni ta'minlaydi;

o'qituvchilarning kasbiy va pedagogik mahoratini, shuningdek, ma'naviy yetukligini muntazam oshirib boradi;

umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari bilan ta'limning uzluksizligi va uzviyligi tamoyillariga rioya qilgan holda iqtidorli o'quvchilar bilan ish olib borish doirasida

o'zaro amaliy hamkorlikni yo'lga qo'yadi;

akademik litsey ehtiyoji asosida belgilangan tartibda zarur moddiy jihozlarni va boshqa moddiy resurslarni korxona hamda tashkilotlardan belgilangan tartibda ijaraga oladi yoki xarid qiladi, shuningdek, o'zining bo'sh turgan moddiy jihozlar va boshqa moddiy resurslarini idoraviy bo'ysunuvi bo'yicha tegishli vazirlik va idoralarning ruxsati asosida ijaraga beradi;

akademik litsey ustavida belgilangan vazifalarga muvofiq, akademik litseyning asosiy faoliyatiga to'sqinlik qilmagan holda pulli ta'lim xizmatlari va boshqa xizmatlar ko'rsatadi, shuningdek tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega;

chet el fuqarolari va xorijda yashovchi fuqaroligi bo'lmagan shaxslar (O'zbekiston Respublikasida yashash guvohnomasi yoki "investitsiya vizasi"ga ega xorijiy investorlar hamda ularning oila a'zolari bundan mustasno)ni to'lov-kontrakt asosida o'qitadi;

o'quv yili uchun to'lov-kontrakt miqdori qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda belgilanadi;

akademik litseyda qo'shimcha ta'lim xizmatlari ko'rsatganlik uchun haq undirish tartibi ular tomonidan mustaqil ravishda belgilanadi;

akademik litsey pulli ta'lim xizmatlari va qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalardan tushgan mablag'larni akademik litseyning moddiy-texnik bazasini rivojlantirishga va ta'lim-tarbiya jarayonini zamonaviy o'quv-texnik vositalar, mebellar bilan ta'minlashga, akademik litsey xodimlarini ijtimoiy himoyalashga va ularning faoliyat samaradorligini oshirishni rag'batlantirishga sarflaydi.

Akademik litsey qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

16. Akademik litsey quyidagi majburiyatlarga ega:

O'zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlarini, davlat ta'lim standartlari, o'quv rejalari va dasturlarini, yuqori turuvchi boshqaruv organlarining tegishli buyruqlari va ko'rsatmalarining bajarilishini ta'minlaydi;

davlat ta'lim standartlariga muvofiq, soha yo'nalishlari bo'yicha o'quvchilarning intensiv intellektual rivojlanishini ta'minlaydi;

ota-onalar, fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish organlari, jamoat tashkilotlari va boshqa manfaatdor idoralar bilan o'quv-tarbiya ishlarini rivojlantirish bo'yicha hamkorlik ishlarini olib boradi;

o'quvchilarning tanlagan ta'lim yo'nalishlari bo'yicha chuqurlashtirilgan bilim olishlari uchun imkoniyatlar yaratib beradi;

o'quvchilarning intellektual qobiliyatlarini yanada rivojlantirishga va o'qishini oliy ta'lim tashkilotlarida davom ettirishiga puxta tayyorlaydi;

o'quvchilarning ijodiy salohiyati namoyon bo'lishi va faollashishiga ko'maklashuvchi, individual iste'dodlari, qobiliyatlari va xususiyatlarini hisobga olgan holda, bilimlarni egallab olish jarayonida mustaqil faoliyat ko'nikmalarini shakllantiruvchi va rivojlantiruvchi ta'lim muhitini yaratadi;

ta'lim sifatini yaxshilash, o'quv-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish hamda rivojlantirish ishlarini amalga oshiradi;

o'quvchilarda vatanparvarlikni, o'z Vatani bilan faxrlanish his-tuyg'usini

rivojlantirish, milliy o'zligini anglash, xalqimizning milliy, madaniy, tarixiy an'analariga hurmat bilan qarashni kuchaytiradi;

amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq, umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarining 9-sinf bitiruvchilarini akademik litseyga o'qishga qabul qilishni, kursdan-kursga o'tishini, boshqa ta'lim tashkilotiga ko'chirilishini, o'qishdan chetlatilishini, shuningdek, akademik ta'til berishni tashkil etadi, o'qishni tamomlagan bitiruvchilarga Davlat namunasidagi diplom va egallagan mutaxassisligi bo'yicha sertifikat berilishini ta'minlaydi;

ota-onalar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, jamoat tashkilotlari va boshqa manfaatdor idoralarga o'quv-tarbiya ishlarini rivojlantirish bo'yicha murojaatlar yo'llaydi;

turli moliyaviy manbalardan foydalanib, akademik litseyning maxsus fondini shakllantiradi;

o'qishda (ishda) alohida ko'rsatkichlarga erishgan o'quvchi va o'qituvchilar hamda ishchi-xodimlarni taqdirlaydi (moddiy va ma'naviy), davlat mukofotiga taqdim etadi, lozim bo'lganda ularga intizomiy jazo choralarini (xususan jarima qo'llanilishi mumkin) ko'radi.

Akademik litsey qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlarni ham olishi mumkin.

4-bob. O'quv-tarbiyaviy va ilmiy-metodik ishlarni tashkil etish

17. O'quv-tarbiya jarayonining mazmuni davlat ta'lim standartlariga muvofiq ishlab chiqilgan o'quv rejalar va o'quv dasturlar asosida belgilanadi. Akademik litseyda ta'lim jarayoni davlat tili hamda rus tillarida olib boriladi.

18. Akademik litseyda o'quv guruhleri tarkibi 26 nafar o'quvchidan ortiq bo'lmagan tarzda shakllantiriladi.

19. Akademik litseyda quyidagi fanlar bo'yicha har semestrda, o'quv guruhlarida o'quvchilar soni 22 nafar va undan ortiq bo'lganda, o'quvchilarning salohiyatiga ko'ra teng nisbatda guruhlarga bo'lib o'qitishga ruxsat etiladi:

o'zbek (rus) tili;

chet tili;

informatika va axborot texnologiyalari;

chuqurlashtirib o'qitiladigan fanlar (ta'lim yo'nalishlari) bo'yicha.

Boshqa fanlar bo'yicha guruhleri kichik guruhlarga bo'lib o'qitish ta'qiqlanadi.

20. O'quv yilining boshlanishi va tugash muddati o'quvchilarning haftalik yuklamasi va yakuniy nazoratlari hamda ta'tillarining davomiylik muddati, shuningdek, o'qishni yakunlash shakllari va turlari o'quv rejalariga asosida amalga oshiriladi.

21. Akademik litseyda o'qitishning kunduzgi shakliga amal qilinadi. O'qish muddati 2 yil. Har bir o'quv yilida o'quv jarayoni 36 haftadan iborat bo'lib, bir semestr 18 haftani o'z ichiga oladi. O'quv jarayoni haftasining davomiyligi 5 kun (akademik litsey Pedagogik kengashi qarori bilan) etib belgilangan.

22. Akademik litseyda barcha o'quv mashg'ulotlari uchun ikki akademik o'quv

soat davomiyligi 80 daqiqa etib belgilanadi.

23. Akademik litseyda birinchi kungi mashg'ulotlar akademik litsey ishlab chiqqan tadbirlarga muvofiq vazirlik va idoralar, ularning joylardagi bo'linmalari, hokimlik, homiyalar, jamoat tashkilotlari vakillari ishtirokida tantanavor ruhda, O'zbekiston Respublikasi Davlat Bayrog'ini olib chiqish va madhiyasini ijro etish bilan boshlanadi.

24. Akademik litseyda o'quv mashg'ulotlarini olib borish uchun Toshkent farmatsevtika instituti professor-o'qituvchilari, tajribali mutaxassislar jalb etiladi.

Toshkent farmatsevtika instituti reja asosida akademik litseyning o'quv-tarbiyaviy, o'quv-metodik va ilmiy-metodik ishlarini tahlil etadi, kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha amaliy yordam ko'rsatadi.

25. O'quvchilarning bilimi va ko'nikmalarini baholash amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar asosida amalga oshiriladi.

26. Akademik litseyda tarbiyaviy ishlar milliy an'analar va umuminsoniy qadriyatlardan kelib chiqib, tashkil qilinadi. Tarbiyaviy ishlar o'quv jarayoni bilan birgalikda oilalar, mahalla, jamoat tashkilotlari, shaxsning ijodiy faoliyatini shakllantiruvchi, O'zbekiston Respublikasining Mustaqillik tamoyillariga sodiq va jamiyatning rivojiga real hissa qo'sha oladigan davlat va nodavlat tashkilotlari bilan birgalikda amalga oshiriladi.

27. Akademik litsey o'quvchilarini umumta'lim fanlari bo'yicha darsliklar bilan ta'minlash qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan amalga oshiriladi.

28. Akademik litseyda nazorat ishlarining istalgan turidan o'quvchilarni ozod qilishga yo'l qo'yilmaydi.

29. O'qitish har bir kursda barcha fanlar bo'yicha yakuniy nazorat bilan yakunlanadi.

30. O'qishdagi yutuqlari, o'quv-ilmiy, ijodiy faoliyati va boshqa ishlarda faol qatnashganligi uchun akademik litsey o'quvchilariga turli xil ma'naviy va moddiy rag'batlantirishlar belgilanadi.

31. Davlat budjetidan akademik litseyga ajratilgan mablag'lar hisobidan har semestrda bir marotaba uning yakuni bo'yicha barcha fanlardan eng yuqori o'zlashtirish ko'rsatkichlariga ega bo'lgan 10 nafar o'quvchiga akademik litsey pedagogik kengashi qaroriga ko'ra bazaviy hisoblash miqdorining 2 baravari miqdorida "Akademik litseyimiz iftixori" stipendiyasi to'lanadi.

32. O'quv yilining yakuni, o'quvchilarni kursdan-kursga o'tkazish bo'yicha qo'shimcha tadbirlar tantanali ravishda amalga oshiriladi. A'lochi o'quvchilar akademik litsey faxriy yorliqlari va boshqa sovg'alar bilan taqdirlanishi mumkin.

33. Akademik litseyda o'quvchi tomonidan o'quv dasturi va rejasi talablari bajarilmaganda (semestr yakuni bo'yicha ikki yoki undan ortiq fanni "qoniqarsiz" bahoga o'zlashtirgan, uzrli sabablarsiz 76 soat va undan ortiq dars mashg'ulotlarini qoldirgan) yoki akademik litseyning ichki tartib-qoidalarini qo'pol ravishda buzish sabablari bo'yicha akademik litsey Pedagogik kengashining qaroriga muvofiq o'quv semestri yakunida o'qishdan chetlatiladi.

34. O'quv rejada belgilangan barcha fanlarni to'liq o'zlashtirgan o'quvchi akademik litsey ijrochi direktorining buyrug'iga asosan yakuniy davlat

attestatsiyasiga qo'yiladi.

35. Yakuniy davlat attestatsiyasida ijobiy baho olgan o'quvchiga belgilangan tartibda akademik litseyni tamomlaganligi to'g'risida davlat namunasidagi diplom beriladi.

36. Akademik litsey bitiruvchilariga maxsus chuqurlashtirilgan, tayyorgarlikni talab etmaydigan alohida mutaxassisliklar beriladi.

Maxsus chuqurlashtirilgan, tayyorgarlikni talab etmaydigan alohida mutaxassislik bo'yicha davlat namunasidagi sertifikat o'rnatilgan tartibda bitiruvchilarga topshiriladi.

37. O'quv rejasida nazarda tutilgan fanlardan yakuniy baholarining kamida 86 foizi "a'lo" va qolgan fanlardan "yaxshi" bo'lgan, yakuniy attestatsiya sinovlaridan "a'lo" baholar olgan, namunali xulqqa ega bo'lgan hamda jamoat ishlarida faol ishtirok etgan o'quvchilarga a'lo darajali diplom beriladi.

38. Akademik litseyning iqtidorli bitiruvchilariga oltin va kumush medallar beriladi.

Bunda:

oltin medal umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarining 9-sinfini bitirganlik to'g'risidagi a'lo darajali shahodatnomasi mavjud bo'lgan, akademik litseyning barcha kurslarida barcha fanlar bo'yicha yakuniy nazoratlar, yarim yillik va yillik baholari a'lo bo'lgan, namunali xulq-atvorli va jamoat ishlarida faollik ko'rsatgan bitiruvchilarga;

kumush medal umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarining 9-sinfini bitirganlik to'g'risidagi a'lo darajali shahodatnomasi mavjud bo'lgan, akademik litseyning barcha kurslarida barcha fanlar bo'yicha yillik baholari a'lo bo'lgan, namunali xulq-atvorli va jamoat ishlarida faollik ko'rsatgan bitiruvchilarga beriladi.

39. Bitiruvchilarga diplom va sertifikatlar hamda oltin va kumush medallar akademik litseyda tantanali tadbirda topshiriladi. Tadbirga ularning ota-onalari, oliy ta'lim tashkilotlari vakillari, hamkor korxona va tashkilotlar, shuningdek, ommaviy axborot vositalari xodimlari taklif etiladi.

40. Toshkent farmatsevtika instituti akademik litseyning o'quv-tarbiya jarayoniga ilmiy-uslubiy rahbarlik qiladi.

41. Toshkent farmatsevtika institutining akademik litseydagi o'quv jarayoni samaradorligini oshirish bo'yicha ko'maklashish darajasi quyidagi mezonlar bilan belgilanadi:

Toshkent farmatsevtika institutining prorektorlari o'z yo'nalishlari bo'yicha akademik litsey faoliyatiga har tomonlama yordam ko'rsatishi.

o'quvchilarning oliy ta'lim tashkilotlariga kirish ko'rsatkichlari dinamikasi;

o'quvchilarning kamida bitta xorijiy tilni puxta o'zlashtirishlari uchun dars mashg'ulotlariga yuqori malakali pedagoglarni jalb qilish va zaruriy sharoitlar yaratish;

Toshkent farmatsevtika institutining professor-o'qituvchilari, shu jumladan rahbar xodimlarini belgilangan tartibda akademik litseyning dars mashg'ulotlariga hamda o'qituvchilarga metodik yordam ko'rsatishga jalb qilish, o'quv-metodik adabiyotlar yaratish;

o'qituvchilarning sifat tarkibini yaxshilash dinamikasi;

o'qituvchilarning chop etilgan o'quv, ilmiy-metodik ishlanmalari;
o'quvchilarning fan olimpiadalaridagi yutuqlari;
o'quvchilarning turli ko'rik-tanlovlarda erishgan natijalari.

5-bob. Akademik litseyning tuzilishi

42. Akademik litsey shtatlari jadvali amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar asosida ishlab chiqiladi, tasdiqlanadi hamda ro'yxatdan o'tkaziladi.

43. Akademik litseyda pedagogik kengash, metodik kengash, ota-onalar kengashi tuziladi va faoliyat yuritadi.

44. Akademik litseyda kasaba uyushmasi va boshqa jamoatchilik tuzilmalari tashkil etiladi. Kasaba uyushmasi qo'mitasi, xotin-qizlar qo'mitasi, O'zbekiston Yoshlar ittifoqi, murabbiylar kengashi va akademik litseydagi ta'lim-tarbiya jarayoniga daxldor bo'lgan boshqa jamoatchilik tuzilmalari faoliyati O'zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlari va akademik litsey ustavi asosida olib boriladi.

45. O'qituvchilar va xodimlar hamda o'quvchilarning qonuniy manfaatlarini himoyalash ta'lim va fan kasaba uyushmalari hamda ularning akademik litseyda saylangan organlari tomonidan amalga oshiriladi.

46. Akademik litseyda fan kafedralari hamda Toshkent farmatsevtika instituti tomonidan birlashtirilgan kafedra filiallari tashkil etiladi. Tashkil etilgan kafedralar ular faoliyati to'g'risidagi Nizomlar bilan tartibga solinadi.

47. Akademik litsey o'qituvchilari Toshkent farmatsevtika institutining tegishli kafedralariga va tajribali professor-o'qituvchilariga birlashtiriladi hamda ular o'rtasida ta'lim sifatini oshirish borasida hamkorlik yo'lga qo'yiladi.

48. Akademik litsey ijrochi direktori Toshkent farmatsevtika instituti Kengashi a'zosi hisoblanadi. Ijrochi direktor akademik litseyda amalga oshirilayotgan o'quv-tarbiyaviy va ilmiy-metodik ishlar samaradorligi bo'yicha Toshkent farmatsevtika instituti Kengashida hisobot beradi.

6-bob. Akademik litseyni boshqarish

49. Toshkent farmatsevtika institutining o'quv ishlari uchun mas'ul prorektori bir vaqtning o'zida akademik litsey direktori hisoblanadi.

Akademik litseyni boshqarish akademik litsey direktori hamda ijrochi direktori tomonidan amalga oshiriladi.

50. Akademik litseyda Pedagogik kengash tashkil etiladi. Pedagogik kengashning vakolatlari quyidagilardan iborat:

akademik litsey taraqqiyotining asosiy yo'nalishlarini, ta'lim sifatini oshirish va takomillashtirish, qo'shimcha moliyaviy mablag'larni jalb qilish, moddiy-texnik bazani mustahkamlash yo'llarini belgilaydi;

ta'lim mazmunining turli shakllari, o'quv-meyoriy hujjatlar, o'quv-tarbiya jarayonining uslublari va ularni amalga oshirish yo'llarini ishlab chiqadi, o'quvchilarni qabul qilish, kursdan-kursga ko'chirish, o'qishdan chetlashtirish masalalarni muhokama qiladi hamda amalga oshiradi;

maslahat kengashi, fan kafedralari hisobotlarini eshitadi va muhokama qiladi;

pedagog xodimlarning malakasini oshirish, ularning ijodiy tashabbusini rivojlantirish, pedagogik tajribasini ommalashtirish ishlarini tashkil qiladi.

Pedagogik kengash o'z faoliyatini belgilangan tartibda tasdiqlangan nizom asosida olib boradi.

51. Akademik litsey ijrochi direktori Pedagogik kengash raisi hisoblanadi. Akademik litsey ijrochi direktori akademik litsey nomidan ish ko'radi, jumladan, boshqa tashkilotlar bilan hamkorlik o'rnatadi, uning moddiy-texnik bazasini mustahkamlaydi, shartnomalar tuzadi, ishonch qog'ozlari beradi, banklarda hisob raqamlari ochadi, akademik litsey doirasida barcha pedagog xodimlar, ishchilar va o'quvchilar uchun majburiy bo'lgan buyruq hamda ko'rsatmalar beradi. Akademik litsey Pedagogik kengashida oliy ta'lim tashkilotining akademik litseylar bilan ishlash bo'yicha mas'ul rahbar xodimlari ishtirok etadi.

52. Akademik litsey ijrochi direktori:

O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlarining bajarilishini ta'minlaydi, akademik litsey faoliyati ustidan umumiy rahbarlikni amalga oshiradi, ta'lim sifatini yaxshilash, o'quv-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish, rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini belgilaydi, uning bajarilishi va natijasi ustidan nazorat qiladi, o'quv-tarbiya jarayonining barcha bosqich va bo'limlari faoliyatini tashkillashtiradi;

akademik litseydagi ishlarning sifat va samaradorligiga, bolalik va mehnatni himoya qilish talablarining bajarilishiga javobgar;

darsdan tashqari ishlarni tashkil etilishiga zarur shart-sharoitlar yaratib beradi;

o'quv-tarbiyaviy jarayonni rejalashtiradi va tashkil etadi. Uning bajarilishi va natijasi ustidan nazorat qiladi;

davlat ta'lim standartlari, o'quv rejalar va o'quv dasturlarning bajarilishini, akademik litsey ustavi talablariga rioya qilinishini ta'minlaydi;

davlat va jamoat tashkilotlarida akademik litsey manfaatlarini himoya qiladi, akademik litseyning yillik va oylik ish rejalarini tasdiqlaydi, o'qituvchilar yillik shaxsiy rejasida belgilangan ishlarning bajarilishini nazorat qiladi;

o'quvchilarning fanlar bo'yicha tizimli bilim olishini ta'minlaydi;

o'quv jarayoniga pedagogik texnologiyalarni va ta'lim vositalarini kiritadi;

o'z vakolati doirasida akademik litseyning moliyaviy xo'jalik masalalarini hal etadi, budjet va budjetdan tashqari moliyaviy mablag'larni shakllantiradi va ulardan samarali foydalanishni ta'minlaydi;

o'quv jihozlari va boshqa o'qitish vositalarining saqlanishini ta'minlaydi, akademik litseyning moddiy-texnik bazasini rivojlantirish ishlarini tashkil etadi;

pedagog kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yishni amalga oshiradi, shtat jadvalini belgilangan xizmat doirasida tasdiqlaydi, pedagogik xodimlar attestatsiyasini tashkillashtiradi;

xodimlar bilan mehnat shartnomalarini tuzadi, mehnat, ishlab chiqarish, ijro intizomi va texnika xavfsizligi qoidalariga amal qilinishini ta'minlaydi;

xodimlarni rag'batlantirish bo'yicha maxsus komissiyaga raislik qiladi, maxsus komissiya qarori asosida xodimlarga qo'shimcha haq, bir martalik mukofot va moddiy yordamni tayinlaydi;

vasiylik kengashi, ota-onalar, mahalla qo'mitasi, jamoat va homiy tashkilotlar bilan o'quv-tarbiya ishlarini rivojlantirish bo'yicha hamkorlik ishlarini olib boradi;

o'smirlarning huquq va manfaatlarini himoyalash va muhofazalash bo'yicha talabnomalarga amal qilinishini ta'minlaydi;

mehnatni muhofazalash va texnika xavfsizligi bo'yicha ishlarni tashkil etadi, kam ta'minlangan oila farzandlarini ijtimoiy himoyalash ishlarini tashkil etadi;

o'quvchilar turar joyiga ehtiyoji bo'lgan o'quvchilar uchun sharoitlar yaratadi; bitiruvchilar bandligini ta'minlash ishlarini tashkil etadi, monitoringini olib boradi;

malaka oshirish uchun sharoit yaratadi;

jismoniy va yuridik shaxslarning vakillarini og'zaki va yozma murojaatlari bo'yicha qabul qiladi;

akademik litsey bitiruvchilarining oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga kirishi, akademik litsey faoliyati natijalari uchun shaxsan javob beradi.

Akademik litsey ijrochi direktori belgilangan tartibda tanlov natijalari asosida bo'ysunuvi bo'yicha tegishli vazirlik va idora bilan kelishilgan holda oliy ta'lim tashkiloti rektorining buyrug'i asosida lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi.

53. Akademik litsey ijrochi direktori amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vazifalarni ham amalga oshiradi.

7-bob. Ta'lim oluvchilar

54. Akademik litsey o'quvchilarining huquqlari:

o'quv binolari, laboratoriya, kutubxona, sport majmualaridan bepul foydalanish, o'zlarining qobiliyatlarini namoyon qilish va rivojlantirish, o'z salohiyatini o'stirish, o'z bilimlarini fanlar bo'yicha chuqurlashtirish;

fan, texnika, zamonaviy texnologiyalar yutuqlariga mos keluvchi bilimlar olish;

akademik litsey axborot resurs markazida mavjud bo'lgan kitoblar, davriy nashrlar, elektron ta'lim vositalaridan belgilangan tartibda bepul foydalanish;

auditoriylar, ta'lim jarayoniga oid vositalardan belgilangan tartibda bepul foydalanish;

o'z-o'zini boshqaradigan o'quvchilar organiga saylash va saylanish, akademik litsey faoliyatida, eng muhim masalalarni hal qilishda ishtirok etish;

akademik litseyning ijodiy faoliyatida ishtirok etish;

o'quv rejasi doirasidan tashqari, ijtimoiy, sport va fan to'garaklariga qatnashish orqali bilim olish;

o'z fikrini erkin bayon etish;

amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq, bir ta'lim yo'nalishidan boshqa ta'lim yo'nalishiga hamda boshqa ta'lim tashkilotiga o'qishini ko'chirish, akademik ta'lim olish bo'yicha (voyaga yetmaganlar ota-onalari yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar orqali) murojaat qilish;

turli tanlovlar, respublika va xalqaro olimpiadalarda ishtirok etish;

o'qishdan tashqari vaqtlarda akademik litseyda ma'naviy-ma'rifiy, obodonlashtirish, ko'kalamzorlashtirish va boshqa qonunchilikka zid bo'lmagan jamoat ishlarida ishtirok etish;

belgilangan tartibda o'qishni tamomlagandan so'ng Davlat namunasidagi diplom va egallagan mutaxassisligi bo'yicha sertifikat olish;

Toshkent farmatsevtika institutining axborot-resurs markazidan, o'quv-laboratoriya uskunasi, kompyuter texnikasi va boshqa tashkiliy texnika vositalaridan, darsliklar hamda boshqa o'quv va badiiy adabiyotlardan foydalanish;

umumta'lim fanlari bo'yicha darsliklarni ijara asosida olish;

sifatli va yuqori saviyada bilim olish.

Bunda o'quvchi o'z huquqlarini suiiste'mol qilmasligi, bu huquqlardan o'zga shaxslar manfaatiga zid maqsadlarda foydalanmasligi shart.

55. Akademik litsey o'quvchilarining majburiyatlari:

davlat ta'lim standarti hamda o'quv dasturi va rejalarida belgilangan o'quv fanlari bo'yicha puxta bilim egallash va to'liq o'zlashtirish;

davlat ta'lim standarti hamda o'quv dasturlari asosida bilim, malaka va ko'nikmalarni o'zlashtirishi, mashg'ulotlarga qatnashishi, ularga mustaqil tayyorgarlik ko'rish;

o'quv jarayoni bilan bog'liq vazifalarni o'z vaqtida va sifatli bajarish, o'qituvchilarning fanni o'zlashtirish bilan bog'liq topshiriqlarini o'z vaqtida va talab darajasida bajarish, mashg'ulotlarga zarur o'quv qurollari bilan kelish;

o'quv jarayoni talablariga bo'ysunishi, o'quv mashg'ulotlarini uzrli sababsiz qoldirmaslik, darslarga kech qolib kelmaslik, dars mashg'ulotlari yakunlanmasdan avval ketib qolmaslik;

ta'lim olish jarayonida jamiyatning axloqiy prinsiplariga, ma'naviy qadriyatlarimizga, qonun talablariga, o'zaro munosabatlarning yuksak talablariga javob beruvchi qoidalariga qat'iy amal qilish;

ta'lim-tarbiya jarayonining boshqa ishtirokchilariga nisbatan jismoniy va (yoki) ruhiy zo'ravonlik ishlatmasligi va ularning o'z majburiyatlarini bajarishiga to'sqinlik qilmasligi;

barcha bilan xushmuomalada bo'lish;

akademik litseyning o'quv-tarbiyaviy tadbirlarida faol ishtirok etish;

kiyinish madaniyatiga rioya qilish, xususan tashqi ko'rinishi va yomon xulq-atvori bilan boshqalardan ajralib turmasligi, odob-axloq qoidalariga so'zsiz bo'ysunishi;

akademik litsey ustavi talablariga, ichki tartib-qoidalariga, vaqtincha yashash joylari qoidalariga va ta'lim faoliyatini tashkil etish hamda amalga oshirishga oid boshqa ichki hujjatlar talablariga rioya etishi;

axloqiy, ma'naviy va jismoniy kamol topishga hamda o'z dunyoqarashini kengaytirishga intilishi;

ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining sha'ni, qadr-qimmatini va ishchanlik obro'sini hurmat qilishi;

akademik litseyning binolari va uning boshqa mol-mulkini asrab-avaylash, yotoqxonada yashash vaqtida majburiyatlarini o'z vaqtida bajarish;

akademik litsey mulki jihozlar, darsliklar, o'quv qo'llanmalari, o'quv-laboratoriya jihozlariga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish;

Shuningdek, o'quvchilarning zimmasida qonunchilikka muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

56. Ta'lim oluvchilar ota-onasining hamda boshqa qonuniy vakillarining huquq va majburiyatlari.

Voyaga yetmagan ta'lim oluvchilarning ota-onasi va boshqa qonuniy vakillari bolaning o'qishi, tarbiyalanishi, jismoniy, ma'naviy va intellektual rivojlanishi uchun mas'uldir.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va akademik litseylar voyaga yetmagan ta'lim oluvchilarni tarbiyalashda, ularning jismoniy hamda ruhiy sog'lig'ini muhofaza qilish va mustahkamlashda, shuningdek, individual qobiliyatlarini rivojlantirishda ularning ota-onasiga hamda boshqa qonuniy vakillariga ko'maklashadi.

Voyaga yetmagan ta'lim oluvchilarning ota-onasi va boshqa qonuniy vakillari quyidagi huquqlarga ega:

jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalarga, shuningdek, uzoq vaqt davolanishga muhtoj bo'lgan bolalarga oilada ta'lim olish imkoniyatini berish;

oilada ta'lim olayotgan bolaning fikrini inobatga olgan holda uning o'qishini akademik litseyda davom ettirish to'g'risida qaror qabul qilish;

akademik litsey bilan hamkorlik qilish, ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish, moddiy-texnika bazasini rivojlantirish, akademik litseyga xayriya yordami ko'rsatish bo'yicha takliflar kiritish;

akademik litsey ustavi va (yoki) boshqa ta'sis hujjati, litsenziyasi, davlat akkreditatsiyasi to'g'risidagi sertifikat, davlat ta'lim standartlari, davlat ta'lim talablari, malaka talablari, o'quv rejalari va o'quv dasturlari bilan tanishish;

ta'limning mazmuni, qo'llanilayotgan ta'lim va tarbiya usullari, ta'lim texnologiyalari bilan, shuningdek, o'z bolalarining o'quv fanlarini o'zlashtirishi natijalari bilan tanishish;

ta'lim oluvchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish;

akademik litseyni boshqarishga doir masalalarni muhokama qilishda ishtirok etish.

Voyaga yetmagan ta'lim oluvchilarning ota-onasi va boshqa qonuniy vakillari qonunchilikka muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

57. Voyaga yetmagan ta'lim oluvchilarning ota-onasi va boshqa qonuniy vakillari:

o'z bolalarini insonparvarlik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, ma'naviy, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni hurmat qilish ruhida tarbiyalashi;

bolalarining o'rta maxsus ta'lim olishini ta'minlashi;

bolalarining o'quv mashg'ulotlariga qatnashishini ta'minlash va o'zlashtirishi ustidan nazoratni amalga oshirish;

o'z bolalarining intellektual, ma'naviy va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratishi;

akademik litseyning ta'lim-tarbiya jarayonini tartibga soluvchi ichki tartib-qoidalariga rioya etishi;

jismoniy va yuridik shaxslar bilan munosabatlarda, shu jumladan sudda maxsus vakolatlarsiz o'z bolalarining ta'lim sohasidagi huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishi;

ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilishi shart.

Voyaga yetmagan ta'lim oluvchilarning ota-onasi va boshqa qonuniy vakillari zimmasida qonunchilikka muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

8-bob. Pedagog xodimlar, o'quv-tarbiyaviy xodimlar

58. Akademik litsey direktori o'rinbosarlari oliy ta'lim tashkiloti rektori bilan kelishilgan holda akademik litsey direktori tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi.

59. Akademik litsey pedagog xodimlari va ishchi xodimlari amaldagi qonun hujjatlariga asosan ijrochi direktorning buyrug'i bilan lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi.

60. Ish beruvchining huquq va majburiyatlari hamda ishni tashkil qilish sharoitlari O'zbekiston Respublikasining mehnat qonunchiligi bo'yicha amalga oshiriladi.

61. Akademik litsey pedagog xodimi va boshqa pedagog kadrlarga qisqartirilgan ish vaqti belgilanadi, har yili mavjud imtiyozlarga ega uzaytirilgan pulli mehnat ta'tili beriladi.

62. Akademik litsey boshqaruv va pedagog xodimlari o'rnatilgan tartibda belgilangan muddatlarda malaka oshirish kurslariga jalb etiladi.

63. Pedagog xodimlar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda attestatsiyaga jalb etiladi va attestatsiya natijalari bo'yicha qabul qilingan qaror asosida pedagog xodimlarning malaka toifalari ko'rib chiqiladi.

64. Akademik litsey rahbar hamda pedagog xodimlarining lavozim majburiyatlari va huquqlari amaldagi qonun hujjatlari asosida belgilanadi.

9-bob. Akademik litseyni moliyalashtirish va moddiy-texnik ta'minoti

65. Akademik litsey faoliyatini moliyalashtirish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda quyidagi manbalar hisobidan amalga oshiriladi:

O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetidan ajratiladigan mablag'lar;
chet el fuqarolari va xorijda yashovchi fuqaroligi bo'lmagan shaxslar (O'zbekiston Respublikasida yashash guvohnomasi yoki "investitsiya vizasi"ga ega xorijiy investorlar hamda ularning oila a'zolari bundan mustasno)ni to'lov-kontrakt asosida o'qitishdan tushgan mablag'lar;

oliy ta'lim tashkilotining budjetdan tashqari mablag'lari;
davlat ilmiy-texnikaviy dasturlari ro'yxatiga kiritilgan ilmiy dasturlarni maqsadli moliyalashtirish, davlat hokimiyati va boshqaruv organlari buyurtmasi bo'yicha tanlov asosida bajariladigan ishlar uchun ajratiladigan mablag'lar;

yuridik va jismoniy shaxslarning homiylik mablag'lari;
qonun hujjatlari bilan ta'qiqlanmagan boshqa manbalar.

66. Akademik litseyning moliyaviy vositalari to'la o'zining qaramog'ida bo'ladi, musodara qilinmaydi, akademik litsey qonunda belgilangan tartibda ulardan foydalanadi.

67. Akademik litseyning yer maydonlari, bino va inshootlari hamda mol-mulkini boshqa tashkilotlarga berish yoki o'tkazish oliy ta'lim tashkiloti bilan kelishilgan holda idoraviy bo'ysunuvi bo'yicha tegishli vazirlik va idoralarning ruxsati asosida amalga oshiriladi.

68. Toshkent farmatsevtika institutining byudjetdan tashqari mablag'lari (to'lov-kontrakt asosida o'qitish uchun tushumlarning faqat to'lov-kontrakt miqdorining oshirilgan qismi) hisobidan akademik litsey uchun o'quv-laboratoriya asbob-uskunalari, sarflash materiallari, kompyuter texnikasi, darsliklar va o'quv qo'llanmalari sotib oladi hamda akademik litseyning o'qituvchi va o'quvchilarini moddiy qo'llab-quvvatlaydi.

69. Akademik litsey budjetdan tashqari, shuningdek Toshkent farmatsevtika institutining budjetdan tashqari mablag'lari hisobidan iqtidorli, shuningdek aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlaridan bo'lgan o'quvchilarni moddiy rag'batlantiradi va qo'llab-quvvatlaydi.

10-bob. Yakunlovchi qoidalar

70. Akademik litseyi qayta tashkil etish yoki tugatish qonunchilik hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Ushbu Toshkent farmatsevtika instituti

akademik litseyi Ustavi 15 varoqdan iborat.

Ustav tikildi, muhr bilan tasdiqlandi.

Jirochi direktor

I.S. Qilichev

